

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELEKTUALLIK KOEFFITSIENTINI RIVOJLANTIRISH

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Mamatmurodova Sevinch Asror qizi

Annotatsiyasi: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektuallik ko'effitsientini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada intellektuallik ko'effitsientining ta'rifi, uning ta'lim jarayoniga ta'siri, va IQ ning rivojlanishiga yordam beradigan turli metodlar muhokama qilinadi. O'qituvchilar va pedagoglar uchun o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, problemalarni hal qilish, va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda samarali usullar keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilarning aqliy salohiyatini oshirish uchun innovatsion o'quv metodikalarining ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqola, o'qituvchilarga boshlang'ich sinfda IQ ni oshirish uchun samarali yondashuvlar taklif etadi va uning ta'limdagi muhim rolini yoritadi.

Kalit so'zlar: Intellektuallik ko'effitsienti (IQ), boshlang'ich sinf, ta'lim jarayoni, aqliy salohiyat, mantiqiy fikrlash, innovatsion o'quv metodikalari, o'quvchi salohiyati, pedagogika

Bolalar intellektual rivojlanishining asosi aynan boshlang'ich sinf davrida shakllanadi. Shu bois bu bosqichda berilgan ta'lim nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, balki bolaning tafakkur qilish qobiliyatini ham rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Intellektual ko'effitsient (IQ) nafaqat tug'ma xususiyat, balki muhit, tarbiya va ta'lim bilan ham bog'liq bo'lgan ko'rsatkichdir. O'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish IQ darajasini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun:

1. Matematik masalalarni yechish orqali mantiqiy tafakkur shakllantiriladi.
2. Shaxmat, krassvord kabi intellektual o'yinlar o'rgatish tavsiya etiladi.

3. Muammoli vaziyatlar berib, ularga yechim topish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

Bolalarga ko'proq IQ testlari ustida mashqlar, misollar bajarish ko'proq foyda beradi. Mantiqiy fikrlashi o'sadi va xotirasi mustahkamlanib boradi. Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, o'sha davrda ularning asosiy faoliyati o'qishga o'zgaradi. O'qish faoliyati uchun bolalarda o'tkir zehn, barqaror diqqat, mustaqillik, ishchanlik xislatlari bo'lishi kerak. Birinchi sinf o'quvchisi bilish faoliyatidan ko'ra obrazli xotiraga ko'proq suyanadi. Ta'limda esa ko'proq so'z-mantiq xotirasi taqozo qiladi. So'z-mantiq xotirasi bir so'zning ma'nosini chaqib, anglab olish va uning xotirada mustahkam saqlanib qolish samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektuallik salohiyatini oshirish pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'zining tajribasida bor bilimidan foydalanishi lozim. O'qituvchining yordami bilan bolalarning fikrlashining o'sishi, muammolarni hal qila olish qobiliyatlarining shakllanishi, masalalarni tahlil qila olishi, diqqatining barqaror bo'lishi, savollarga o'zi mustaqil harakati bilan javob topa olishni o'rganishi kerak. Bolalarning intellektuallik koefitsientini rivojlantirishga qaratilgan nazariyalar, yondashuvlar juda ham ko'p. Hozirgi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri – G. Gardner tomonidan ilgari surilgan ko'p intellekt nazariyasi bo'lib, unga ko'ra, bolalarning qobiliyatlari faqat verbal va matematik intellekt bilan cheklanmaydi. Uning nazariyasiga asosan, bolalarning intellekti 8 yo'nalishda rivojlanishi mumkin:

1. So'z boyligi va nutq qobiliyati
2. Hisoblash va tahlil qilish qobiliyati
3. Tasviriyl fikrlash va chizish
4. Harakat orqali o'rganish qobiliyati
5. Musiqiy ritm va tovushlarni idrok qilish qobiliyati
6. Boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati

7. O‘z-o‘zini anglash qobiliyati

8. Atrof-muhitni tushunish qobiliyati

Mana shu nazariyaga asoslanib dars ishlanmasi ishlab chiqilsa, turli xil boladagi muammolarga yechimlar topila boshlaydi. Bolalarning intellektuallik salohiyatining o‘ssishi asosini ta’lim muhiti tashkil etadi. Ana shuning uchun ham asosiy e’tiborni bolaning boshlang‘ich sinfligidan boshlab qaratish lozim. Neyrobiologlar inson miyasi qanday ishlashi va qanday omillar uni rivojlantirishini o‘rganishmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra: Dopamin va serotonin gormonlari bolalarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Miyani faol ishlashga majbur qiluvchi mashqlar bolalarning IQ darajasini oshirishi mumkin. Aqliy faoliyatni yaxshilovchi o‘yinlar xotirani mustahkamlaydi va fikrlash jarayonini tezlashtiradi.

1. Xotirani rivojlantirish uchun “10 ta so‘z” mashqi: bolalar oldin 10 ta so‘zni eshitib, keyin ularni eslab qolishga harakat qilishadi.

2. Diqqatni rivojlantirish uchun "Teskari so‘z" o‘yini: masalan, “olma” so‘zini “amlo” deb o‘qitish.

3. “Miya gimnastikasi” usullaridan foydalanish (o‘ng va chap qo‘llar bilan bir vaqtda turli harakatlar qilish).

Mana shu topshiriqlarni misol qilib oladigan bo‘lsak, bolaning birinchi sinfligidan toki to‘rtinchi sinfligiga qarab, mashqlar, topshiriqlar murakkablashtirilib boriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual koeffitsientini rivojlantirish — bu nafaqat ularning bilim olish darajasini oshirish, balki hayotiy muammolarni hal qilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Mazkur yosh davrda bola miyasi juda faol rivojlanadi, shu bois to‘g‘ri tanlangan metodik yondashuvlar orqali ularning aqliy salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

Bolalar tabiatan qiziquvchan bo‘lishadi, shu bois ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish orqali ularning IQ darajasini oshirish mumkin. Shu yo‘lda o‘qituvchilar va ota-onalar birgalikda harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf

o'quvchilarining intellektual rivojlanishi ularning kelajakdagi ta'lim sifati va shaxsiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. IQ darajasini oshirish faqatgina tug'ma qobiliyat bilan bog'liq emas, balki to'g'ri yo'naltirilgan ta'lim, muhit va motivatsiya orqali ham rivojlantirilishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar bolalarning tabiiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab, ularni o'z salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga yo'naltirishlari lozim. Kitob o'qish, aqliy mashqlar, ijodiy faoliyat va muloqotga asoslangan o'yinlar orqali bolalar nafaqat bilim olishadi, balki mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Eng muhimi, har bir bola o'ziga xos va noyob qobiliyatlarga ega. Ularni to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish orqali biz nafaqat yuqori intellektual salohiyatga ega avlodni tarbiyalaymiz, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shamiz. Intellektual rivojlanishni ta'minlash – bu ta'lim berishdan ko'ra murakkabroq jarayon. Bunda bolani faqat tinglovchi emas, faol ishtirokchi, savollar beruvchi, sinov qiluvchi va xulosa chiqaruvchi subyektga aylantirish zarur. Ularning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish uchun muhit, metod, munosabat va rag'bat omillari uyg'unlikda ishlashi kerak. Zamonaviy ta'limda intellektual rivojlanish — shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchining fikrlash salohiyatini ochish, uni izlanishga undash va hayotga tayyorlash demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu borada eng nozik va mas'uliyatli bosqichni tashkil qiladi. Aynan shu davrda asosiy intellektual fundamentlar qo'yiladi: fikrlash tezligi, mantiqiy bog'lanishlarni anglash, sabr-toqat, qiziqish uyg'otish va o'z-o'zini anglash. Ushbu bosqichda bola bilim olishdan tashqari, ongli ravishda o'rganishga o'tadi — bu esa uning butun hayotiga ta'sir qiluvchi asosiy omildir.

Kelajakda jamiyatda yetakchi o'rin egallaydigan, yangilik yaratishga qodir shaxslarni tarbiyalash — bugungi boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Shuning uchun intellektual koeffitsientni rivojlantirish masalasi – bu nafaqat ta'lim muassasalarining, balki butun jamiyatning ustuvor yo'nalishidir. O'qituvchi va ota-onalar hamkorligida yaratilgan sog'lom, qo'llab-quvvatlovchi muhit bolaning o'z salohiyatini to'liq namoyon etishiga zamin yaratadi. Natijada, bolalar faqat maktab dasturini o'zlashtirish bilan

cheklanib qolmay, balki hayotda faol, aqliy jihatdan yetuk va erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saidaxmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati". "Xalq ta'limi" jurnali. 1999, 1-son
2. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T., 2001
3. R. Mavlonova, N. Vohidova va b. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013. -31
4. Mammadov, B. (2015). "Boshlang'ich sinfda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi." *O'qituvchi va ta'lim jurnali*, 4(12), 45-50.
5. Zaripova, N. (2018). "Boshlang'ich ta'limda aqliy salohiyatni oshirishning psixologik va pedagogik asoslari." *O'zbekiston pedagogik fanlari jurnali*, 3(15), 33-39.
6. Kuzminov, I. (2010). "Intelektual rivojlanish va ta'lim metodikasi." *O'qituvchi ma'rifat jurnali*, 2(11), 10-15.
7. Berg, K., & Nichols, J. (2006). "Strategies for Enhancing Cognitive Skills in Young Learners." *Journal of Educational Psychology*, 98(2), 252-267.
8. Ximmatova O., Muminova U. BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA O'ZBEK BOLALAR YOZUVCHILARI IJODIY FAOLIYATI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. –. 19. – C. 121-124.
9. Muminova U. K. WORDS WHOSE MEANING HAS EXPANDED IN" MAHBUB UL-QULUB" //Modern Scientific Research International Scientific Journal. –2024. – T. 2. – №. 2. – C. 329-334.

10. Xo‘jamurodova S. N., Muminova U. Q. ABDULLA AVLONIY–PEDAGOG VA BOLALAR SHOIRI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 128-132.

11. Qarshiyevna M. U., Tursunovna R. M. “Mahbub ul-qulub” da diniy atamalarning qo‘l lanishi //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 258-261.

12. Qarshiyevna M. U. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1. – 2023.

13. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3.– №. 12. – C. 336-340.

14. Muminova Umida Qarshiyevna . Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013. P. 389-394 <https://univerpubl.com/index.php/synergy>